

XIVA SHAHRIDAGI PAHLAVON MAHMUD MAQBARASINING ME'MORIY
KOMPOZITSION TUZILISHI VA TARIXIY AHAMIYATI

Bobojova Setora Xo'janiyoz qizi

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Texnika fakulteti
251- "Qurilish muhandisligi" mutaxassisligi I-bosqich magistranti*

E-mail: setorabobojova8@gmail.com

Odilbekova Madina Mansurbekovna

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Texnika fakulteti
251- "Qurilish muhandisligi" mutaxassisligi I-bosqich magistranti*

E-mail: madinaodilbekova2000@gmail.com

ANNATATSIYA

Maqolada Xiva shahridagi Pahlavon Mahmud maqbarasining tarixiy rivojlanishi va me'moriy xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda maqbara majmuasining shakllanish jarayoni, keyingi davrlarda amalga oshirilgan qurilish va ta'mirlash ishlari haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, inshootning me'moriy tuzilishi hamda Xiva shahrining tarixiy-madaniy muhitidagi o'rni yoritib beriladi. Tadqiqot davomida mazkur yodgorlikning milliy me'moriy meros sifatidagi ahamiyati ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: *Ichan-Qal'a, Pahlavon Mahmud, Muhammad Rahimxon I, Ollohqulixon, maydoni, balandligi, shoir ruboiysi, gumbazi rangi, maqbarasi, ziyoratgohi, naqshlari.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется историческое развитие и архитектурные особенности мавзолея Пахлавона Махмуда в Хиве. Представлена информация о формировании мавзолейного комплекса, строительных и реставрационных работах, проводившихся в последующие периоды. Также освещается архитектурная структура сооружения и его место в историко-культурной среде Хивы. Исследование показывает значимость этого памятника как национального архитектурного наследия.

Ключевые слова: *Ичан-Кала, Пахлавон Махмуд, Мухаммад Рахимхан I, Аллахулихан, площадь, высота, рубаи поэта, цвет купола, мавзолей, святилище, узоры.*

ANNOTATION

This article analyzes the historical development and architectural features of the Pahlavon Mahmud Mausoleum in Khiva. It provides information about the formation of the mausoleum complex, the construction and renovation work carried out in subsequent periods. It also highlights the architectural structure of the structure and its place in the historical and cultural environment of Khiva. The study shows the significance of this monument as a national architectural heritage.

Keywords: *Ichan-Kala, Pahlavon Mahmud, Muhammad Rahimkhan I, Allahqulikhan, area, height, poet's rubai, color of dome, mausoleum, shrine, patterns.*

KIRISH

Xiva shahri Markaziy Osiyoning qadimiy madaniy markazlaridan biri bo'lib, o'zining noyob me'moriy yodgorliklari bilan mashhurdir. Shaharning tarixiy qismi Ichan-Qal'a hududida ko'plab masjid, madrasa va maqbaralar joylashgan. Ana shunday muhim yodgorliklardan biri Pahlavon Mahmud maqbarasi hisoblanadi. Pahlavon Mahmud maqbarasi Xiva arxitektura yodgorliklaridan biridir. Mazkur maqbara nafaqat diniy-me'moriy obida, balki xalqning ma'naviy qadriyatlarini, tarixiy xotirasi va milliy an'alarining muhim timsoli sifatida ham e'tirof etiladi. Pahlavon Mahmud maqbarasi asrlar davomida nafaqat ziyoratgoh sifatida, balki Xiva shahrining me'moriy markazlaridan biri sifatida ham shakllanib kelgan. Ushbu maqolada mazkur tarixiy obidaning shakllanish jarayoni, me'moriy tuzilishi hamda uning tarixiy-madaniy ahamiyati tahlil qilinadi.

Pahlavon Mahmud XIV asrda yashagan mashhur shoir, kurashchi va tasavvuf arbobi sifatida tarixda muhim o'rin egallaydi. Pahlavon Mahmud 1247-yilda Xiva shahrida tug'ilib, 1326-yilda shu shaharda vafot etgan. Rivoyat qilishlaricha, u kishi Urganchlik Piryor Valiy baxshining oilasida dunyoga kelgan([4]34-bet).

Pahlavon Mahmud ilg'or vatanparvar siymosini ko'rsatadigan buyuk inson bo'lib yashagan. Ular ota kasbipo'stindo'zlik va telpakdo'zlik hunari bilan ham shug'ullangan chunki u tariqat pirlaridan bo'lgan. Pahlavon Mahmud haqida juda ko'p rivoyatlar bor. Bu rivoyatlarni xalqimiz dur-u gavhar kabi asrab avaylab kelmoqda. Rivoyatlarga ko'ra hozirgi Pahlavon Mahmud maqbarasi joylashgan yer ilgari bir keksa kampirning mulki bo'lib, bu yerni rizolashib olgan ekanlar([4]38-bet)

Pahlavon Mahmud 1327 yilda (726 hijriyda) ona shahri Xivada, o'z kulbasida 79 yoshida olamdan ko'z yumdi. Rivoyatlarda aytilishicha uning jasadi vasiyatiga ko'ra, shogirdlari tomonidan o'z kulbasi — shoirning po'stindo'zlik ustaxonasiga dafn etilgan va u joy keyinroq maqbaraga aylantirilgan ekan, lekin bu to'g'rida aniq asoslar yo'q. Bu maqbara Sayid Alovuddin maqbarasiga o'xshash oddiy ko'rinishga ega bo'lgan va asta-sekin muborak mozor atrofi qabristonga aylangan. 1701 yilda Shohniyoixon buyrug'i bilan qabriston darvozasi tiklangan. XVII asrga kelib janubida bir qancha daxma paydo bo'ladi va peshtoq quriladi. 1719 yil Sherg'ozixon qabristonning janubroqida maqbaraga taqlid qilib madrasa qurgan. O'lchovi: 50,0 x 30,0 m. Qo'ng'irotlar sulolasidan bo'lgan Xiva xonlari ma'rifatparvar shoir Pahlavon Mahmudga nisbatan hurmat va ehtiromini bajo keltirib, uni o'zlarining piri, madadkori deb e'tiqod qiladilar. Shu boisdan 1810 yilga kelib Xiva xoni Muhammad Rahimxon Qo'ng'irotgaga zafarli yurishidan so'ng Pahlavon Mahmud qabri ustiga pishiq g'ishtdan baland, mustahkam maqbara va 25 metr balandlikdagi gumbazini qurdirdi, uni yirik ansamblga aylantirdi.([4]40-bet)

Bu maqbara Muhammad Rahimxon I va Ollohqulixon hukmronligi davrida qurilgan([2]107-bet). Muhammad Rahimxon I ning to'liq ismi Muhammad Rahimxon ibn Avaz inoq ibn Muhammad Amin inoq bo'lgan. U 1775-1825 yillarda yashab, 1806-1825 yillarda Xiva xoni bo'lgan. Bundan ko'rinadiki u 31 yoshidan boshlab yo vafot etgunicha ya'ni 50 yoshiga qadar o'z taxtida bo'lgan. Akasi Eltuzar vafotidan keyin taxtga o'tirgan.

Muhammad Rahimxon I Xiva xonligini birlashtirishda ijobiy natijalarga erishgan bo'lib, bir qancha siyosiy, iqtisodiy, ma'muriy islohotlar o'tkazgan. Xon saroyi koshida Kengash doimiy faoliyat olib borgan. Muhammad Rahimxon I bir qancha tillarni bilgan va ilm ahliga homiylik qilib ularni qo'llab quvvatlagan. Aynan uning davrida Pahlavon Mahmud maqbarasi qayta qurib tiklangan. Hozirgi maqbara Muhammad Rahimxon I (1806–1825) tomonidan 1810 yilda Qo'ng'iro't shahriga qilingan muvaffaqiyatli yurishdan so'ng qurila boshlangan va uning o'g'li Olloqulixon davrida qurib bitkazilgan. Maqbara 3 ta qismdan iborat: qabrixona, xonaqoh va yo'lak. Maqbaraning g'arbiy qismida joylashgan xonaga Pahlavon Mahmud dafn qilingan. Xonaqohning shimoliy devori yonida Muhammad Rahimxon qabri joylashgan, uning yoniga esa Xiva xonlari Abulg'ozixon va Anushaxonlarning qabr toshlari o'rnatilgan. Yo'lakda esa Olloqulixon dafn etilgan.

Pahlavon Mahmud maqbarasi atrofi XIX asr oxiriga kelib Xiva xonlari va ularning yaqinlari dafn qilinadigan xilxonaga aylantirilgan. Bino qurilishini xazoraspilik usta O'dinamuhammad Murod boshqargan, usta katta-kichik qismlarni (sirli koshin) yagona me'morchilik inshootiga mohirlik bilan birlashtira olgan, irkor bezaklar sag'anani, tashqi gumbaz va peshtoq qismini bezab turardi, shu vaqtda xonalarning ichi ganch suvoq qilingan edi. 1825 yilga kelib Olloqulixon (1825–1842) buyrug'i bilan qabrixona, ya'ni ziyoratxona va xonaqohga sirli koshin bezak beriladi. Xuddi shu davrda ziyoratxona va qabrixona gumbazlari tashqi tomondan zangori Yashil sirli g'ishtchalar bilan qoplandi. Maqbara peshtoqining ba'zi ko'chib ketgan koshinlari o'rniga o'ziga o'xshatib yangi koshinlar o'rnatildi. Gumbazli dahlizdagi bir xonaning old tomoni besh qirrali shaklga keltirilib, Olloqulixon sag'anasi shu yerga qo'yilgan. Xona devorlari bezakdor sirli koshinlar bilan qoplandi va mis panjara o'rnatilgan. Qurilish ishlarida xivalik ustalardan Mulla Nurmuhammad usta Qalandar o'g'li, So'finmuhammad Niyoz usta Abdujabbor o'g'li va usta Abdulla "jin"lar o'zlarining nodir san'atlarini ko'rsatib bera olishgan.

Katta xonaqohni (balandligi 25 metrlik) tepasiga ustalar islimiy naqshlar bilan birga, bezaklar orasidagi kitobalarga Pahlavon Mahmudning 22 ta ruboiylarini, ustalarning ismlarini, hadislarni, tarixlarni o'zi ijod qilgan fors tilida bitganlar. Bundan tashqari qabrixonaga kiraverishdagi eshik tepasiga shoirning ushbu ruboiysi fors tilida bitilgan:

Uch yuz kuchi Kofni kelida tuyimoq,

Dil qonidan bermoq falakka bo'yoq.

Yenki bir asr zindonda etmok,

Nodon suhbatidan ko'ra yaxshiroq.

1910–1913 yillarda maqbaraning g'arbiy qismida Xiva xoni Isfandiyorxon (1910–1918) onasi, o'zi va o'g'li uchun qabrixona va to'rtta hujradan iborat ikki oshyonali qorixona bunyod qildirgan. Qurilish ishlariga usta Qurbonniyoz boshchilik qilib, qorixona qarshisiga o'ymakor ustunli ayvon qurilgan. Pahlavon Mahmud majmuasi 1960 yilda usta Ro'zmat Masharipov ("Ro'zmat arbob") ishtirokida katta gumbazning usti, qorixona va ayvon ta'mirlanib maqbaraga qayta jon bag'ishlangan. Hozirgi vaqtda binoda O'zbekiston musulmonlari idorasi va "Pahlavon Mahmud jamg'armasi" faoliyat ko'rsatmoqda.

Inshootning ayrim joylari ta'mirlalab bo'lganligi uchun 2007 yilda ayvon ustunlari, yo'laklar, quduq atrofi va uning tepasidagi chiroyli oshyonali yog'och gumbaz, peshtoqning ayrim qismlari qayta ta'mirlangan. ([4]43-bet)

Tarixiy manbalarga ko'ra, Pahlavon Mahmud nafaqat jismonan kuchli pahlavon, balki chuqur ma'rifat va ruhiy poklik timsoli bo'lgan. Uning vafotidan so'ng qabri ustiga dastlab oddiy qabr qurilgan. Keyinchalik esa Xiva hukmdorlari tomonidan ushbu joy muqaddas ziyoratgoh sifatida e'tirof etilib, maqbara majmuasi shakllantirilgan. Ayniqsa XVII–XIX asrlarda olib borilgan qurilish ishlari natijasida maqbara bugungi kundagi ko'rinishiga ega bo'ldi. Xiva xonlari ushbu ziyoratgohni muqaddas maskan sifatida qadrlab, uni kengaytirish va bezashga katta e'tibor qaratganlar. Pahlavon Mahmud maqbarasi o'zining me'moriy yechimi bilan Markaziy Osiyo me'morchiligining yorqin namunalaridan biri hisoblanadi. Inshoot gumbazli tuzilishga ega bo'lib, uning asosiy qismi maqbara xonasidan iborat. Binoning asosiy gumbazi ko'k rangdagi sirlangan koshinlar bilan bezatilgan bo'lib, bu Xiva me'morchiligining o'ziga xos uslubini ifodalaydi.

Pahlavon Mahmud maqbarasi moviy gumbazli xonaqoh, maqbara va ziyoratxonadan iborat majmuadir. Unga peshtoqli darvozaxona orqali kiriladi, so'ng kichik hovliga o'tiladi. Qarshida buyuk peshtoq va gumbazli xonaqoh, maqbara, g'arbda qori xona, sharqda nafis o'ymakor ustunli ayvon joylashgan. Hovli sahnida "muqaddas" quduq bor. Xonaqoh peshtoqining yuzasi g'ishtin; gumbazi moviy rang sirkor koshinlar bilan bezatilgan. Maqbaraning ichkarisi ham gumbaz qubbasigacha moviy rang sopol bilan juda nozik va nafis ishlangan. Bezak gullar orasidagi so'zlar Pahlavon Mahmud ruboiylaridan keltirilgan. ([2]108-bet)

Pahlavon Mahmud maqbarasi — XVIII - XIX asrlar. Bu maqbara 14-asrda yashab o'tgan ulug' mutafakkir shoir, faylasuf olim, kuragi yerga tegmagan pahlavon, mohir po'stindo'z va telpakdo'z usta Pahlavon Maxmud sharafiga bunyod etilgan. Bu majmua Xivada "Hazrati Pahlavon Pir" nomi bilan ham mashhurdir. Pahlavon Mahmud 1247 yili tug'ilib, 1326 yili vafot etgan. Uni Xorazmda "Piryor valiy", "Polvonpir" deb ham atashadi. Shoir va mutafakkir Pahlavon Mahmud asli ko'hna Urganchdan bo'lib, Xivada yashagan(3).



Pahlavon Mahmud majmuasi, Pahlavon Mahmud maqbarasi, Polvon ota maqbarasi – Xivadagi me'moriy yodgorlik (1810—1913). Maqbara majmuasining umumiy hajmi 50x30 m bo'lib, dastlab Pahlavon Mahmud qabri ustiga 1664-yilda mo'jaz sinchkori imorat qurilgan. Pahlavon Mahmud (1247—1326) maqbarasi azaldan o'zbeklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar va boshqa xalqlar vakillari ziyorat qilgan va ziyorat qiladigan muqaddas maskan hisoblanib kelgan(1).

Maqbara devorlarida murakkab geometrik naqshlar, arab yozuvlari hamda o'simliksimon ornamentlar qo'llanilgan. Ushbu bezak elementlari o'z davrining yuksak san'at darajasini ko'rsatadi. Binoning tashqi qismi ham koshin va sirlangan g'ishtlar bilan bezatilgan bo'lib, ular quyosh nuri ta'sirida yanada jozibali ko'rinish hosil qiladi. Majmua tarkibida maqbaradan tashqari masjid, xonaqoh va ziyoratchilar uchun mo'ljallangan boshqa inshootlar ham mavjud. Bu esa mazkur majmuaning diniy va ijtimoiy markaz sifatida xizmat qilganini ko'rsatadi. XX asr boshlarida maqbara majmuasi hududida ayrim qo'shimcha inshootlar barpo etilgan. Jumladan, 1913-yilda hovlining g'arbiy tomonida ikki qavatdan iborat qori xona qurilib, uning ro'parasida ayvon qad ko'targan. Oradan bir necha o'n yil o'tib, 1960-yilda taniqli usta Ro'zimat Masharipov boshchiligida ushbu binolarda ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan va ularning me'moriy holati qayta tiklangan.

Mustaqillik yillarida ham mazkur tarixiy majmuani asrash va obodonlashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, 1997-yilda Xiva shahrining 2500 yilligi munosabati bilan olib borilgan keng ko'lamli restavratsiya ishlari jarayonida Pahlavon Mahmud maqbarasi ham yangilanib, uning atrofi tartibga keltirildi. Tarixiy, me'moriy va madaniy ahamiyati yuqori

bo'lgan ushbu yodgorlik 1990-yilda UNESCO tomonidan Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan([2]108-bet)

XULOSA

Xiva shahridagi Pahlavon Mahmud maqbarasi Markaziy Osiyo me'morchiligining nodir namunalaridan biri hisoblanadi. Mazkur inshoot nafaqat tarixiy shaxs xotirasini abadiylashtiruvchi maqbara, balki xalqning ma'naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim madaniy yodgorlikdir.

Uning me'moriy tuzilishi, bezak elementlari va tarixiy shakllanish jarayoni Xiva me'morchilik maktabining yuksak darajada rivojlanganligini ko'rsatadi. Shu bois, ushbu obidani o'rganish, ilmiy jihatdan tadqiq qilish hamda kelajak avlodlar uchun saqlab qolish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida qayta ta'mirlanib, oldingidan ham go'zal obidaga aylangan Pahlavon Mahmud ziyoratgohi Xivaning homiysi shaharning ziynati hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Wikipedia <https://uz.wikipedia.org>
2. "O'zbekiston memoriy yodgorliklari" S.Davletov, M.Abdullayev Toshkent 2022 "Fan ziyosi" nashriyoti
3. "Pahlavon Mahmud maqbarasi" meros.uz <https://meros.uz>
4. "Hazrati Pahlavon Mahmud maqbarasi" <https://cyberleninka.ru>
5. Uzbekistan.travel <https://uzbekistan.travel>
6. "Xorazm qadamjolari va ziyoratgohlari" Abdulla Abdurasulov, Zaynab Abidova. Birinchi kitob Toshkent yangi nashr 2016